



COLLECTION OF MATERIALS OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE APPROACH OF CULTURAL STUDIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS



OCTOBER 19-20, 2023



MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY NAMED AFTER NIZAMI
UZBEKISTAN SCIENTIFIC RESEARCH INSTITUTE OF PEDAGOGICAL SCIENCES
OF NAMED AFTER T.N.KARI NIYAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL SCIENCE AND INNOVATION



COLLECTION OF MATERIALS

FROM THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
“STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF
FUTURE TEACHERS BASED ON A CULTURAL APPROACH: PROBLEMS AND
SOLUTIONS”

October 19-20, 2023

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
“СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО
ПОДХОДА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ”

19-20 октября 2023 г.

“MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK
O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2023-yil 19-20-oktabr

Collection of materials from the international scientific and practical conference “Strategies for the development of professional competence of future teachers based on a cultural approach: problems and solutions”, October 19-20, 2023- T.: Science and Innovation, 2023.

This issue of the journal is indexed in the international scientific databases Index Copernicus, OpenAire, ZENODO, Cyberleninka and Google Scholar. All articles were placed in the electronic scientific database of the journal Science and Innovation (scientists.uz)

Participants of the publication

<i>Bakhtiyor Rustamov</i>	<i>Chief Editor International scientific journal Science and innovation</i>
<i>Gulira’no Rakhmatullaeva</i>	<i>Executive Editor</i>
<i>Anvar Rustamov</i>	<i>Technical editor</i>
<i>Fotima Shermatova</i>	<i>Corrector-editor</i>
<i>Farangiz Sagdullayeva</i>	<i>Technical editor</i>
<i>Humoyun Qodirov</i>	<i>Technical editor</i>
<i>Mansur Suyunqulov</i>	<i>Technical editor</i>
<i>Gulishaxnoz Abdullayeva</i>	<i>Graphic Designer</i>
<i>Sevara Jabborova</i>	<i>Press Secretary</i>

Members of the editorial board

<i>X.Ibraimov</i>	<i>Doctor of Pedagogical Sciences, Professor</i>
<i>R.Safarova</i>	<i>Doctor of Pedagogical Sciences, Professor</i>
<i>H.Tojiboeva</i>	<i>Doctor of Pedagogical Sciences</i>
<i>N.Masharipova</i>	<i>Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences</i>
<i>S.Ibrahimov</i>	<i>Doctor of Pedagogical Sciences</i>
<i>Y.Makhmudov</i>	

The collection was published under the general editorship of Doctor of Pedagogical Sciences, Professor R.Safarova.

- © Ministry of Preschool and school education of the Republic of Uzbekistan
- © Tashkent state pedagogical university named after Nizami
- © Uzbekistan scientific research institute of Pedagogical sciences of named after T.N.Kari Niyazi
- © International Scientific Journal Science and Innovation
- © Authors

**MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK
O‘QITUVCHILARNI BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IJTIMOYIY VA
HUQUQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH**

Nargiza Hakimova

Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10005068>

Dunyodagi ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlari, ta‘lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini innovatsion yondashuvlar asosida ijtimoiy-huquqiy jihatdan bilimli, zamonaviy dunyo uchun zarur bo‘lgan muayyan ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltirilgan bilim berish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb muammo sanaladi. O‘quvchilarning ijtimoiy-huquqiy savodxonligini oshirishni kafolatlovchi innovatsion – integrativ usullarni qo‘llashning pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlash hamda savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodni odob-axloq me‘yorlariga o‘rgatish, ular ongida ijtimoiy-huquqiy me‘yorlarga hurmat hissini tarbiyalash orqali hayotiy ko‘nikmalarga o‘rgatish, o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga ta‘sir etuvchi omillar, faol fuqarolik pozitsiyasi va huquqiy madaniyatni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni odob-axloq me‘yorlariga o‘rgatishning ahamiyati Sharq mutafakkirlari al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, A.Fitrat, A.Avloniy, M.Behbudiyning ma‘naviy merosida o‘z aksini topgan. Ushbu talablar mamlakatimiz olimlari tomonidan ham tadbqiq etilib, ularda ajdodlar merosidan foydalangan holda madaniyatshunoslik yondashuvlarga asoslanish o‘ziga xos o‘ringa ega.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda ularga “shaxs”, “madaniyat”, “qadriyat”, “xulq-atvor”, “huquq”, “burch”, “tarbiya” kabi tushunchalar haqida ma‘lumot berish hamda odob-axloq me‘yorlari mazmun-mohiyatining zaruriy sifatlarini singdirishning o‘zi bu madaniyatshunoslik yondashuvga asoslanishning ma‘lum bir omilidir. Ushbu tushunchalar o‘zaro aloqador bo‘lib, doimiy ravishda bir - birini to‘ldirib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishdan oldin ularda mazkur tushunchalar haqidagi bilimlarini tarkib toptirish zarur.

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning tamoyillarini quyidagi tarzda izohlash mumkin:

Birinchidan, o‘quvchida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning mavjudligi uning umri davomidagi muvaffaqiyatli faoliyatini kafolatlaydi.

Ikkinchidan, o‘quvchi hayotida shaxsiy harakatlarining yetarlicha tanloviga imkon yaratib, shaxsga xos bo‘lgan ijtimoiy rollarni bajarish samaradorligini ta‘minlaydi.

Uchinchidan, o‘quvchining Vatanga, oilaga, insonlarga, tabiatga, qadriyatlarga nisbatan e‘tiqodini hamda shaxslararo munosabatlarini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy va huquqiy kompetensiya ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, estetik qadriyatlar va o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Beshinchidan, o‘quvchilarda ijtimoiy muhit, oilasi, mahallasidagi jamoaviy munosabatlar ham muhim rol o‘ynaydi.

Oltinchidan, ta‘lim muassasasidagi ochiq ijtimoiy-pedagogik tizim, sog‘lom muhit, o‘qituvchilarning kasbiy darajasi e‘tiboga olinadi.

Yettinchidan, o‘quvchilarning hayotiy qadriyatlarini aniqlash, ochiqlik, bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibatlilik, axloqiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar, kasb tanlash motivlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash, ijtimoiy harakatchanlik va faollik kabi omillar e‘tiborga olinadi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagi interfaol o‘qitish shakllaridan foydalandik:

- o‘qituvchi – o‘quvchi (juftlikda ishlash);
- o‘qituvchi-o‘quvchilar guruhi (jamoada ishlash);
- o‘quvchi- o‘quvchi (juftlikda ishlash);
- o‘quvchi - o‘quvchilar guruhi (guruh yoki kichik guruhda ishlash)
- o‘quvchilar-o‘quvchilar guruhi (kichik guruhlarda ishlash)

Ushbu ta‘lim shakllaridan foydalanib, o‘quvchilarda faollik, ijodkorlik, mehnatsevarlik, intiluvchanlik, bilimdonlik, tadqiqotchilik kabi sifatlarni shakllantiradigan hamda sheriklik (subekt-subektlik) muloqoti tamoyillariga asoslangan “Do‘st tanlayman”, “Ta‘qiqlangan meva”, “O‘zimizni qanday tutamiz”, “Qadriyatlar”, “Qadr-qimmatliklar yarmarkasi” kabi o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan ta‘limiy o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Milliy dastur asosida yaratilgan boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan fanlarning bosh g‘oyasida kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan o‘quv dasturlari bo‘yicha ta‘lim jarayonini tashkil etish asosida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar bilan birgalikda ular da mas‘uliyat va moslashuvchanlik, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash, shaxslararo hamkorlik qilish, muammolarni aniqlash, yechimni topish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish, ijtimoiy mas‘uliyat kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Bunday zamonaviy ta‘lim-ta‘lim berish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning vazifasi quyidagicha bo‘ladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida boshlang‘ich sinf darslarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining vazifasi

O‘qituvchi	O‘quvchi
O‘quvchiga bilim bermaydi balki, unga bilim olishni o‘rgatadi.	Darsda olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘lay olish layoqat elementlarini egallaydi.
Doimiy izlanishda bo‘ladi, o‘z ustida mustaqil ishlab, kasbiy kompetentligi, pedagogik mahoratini oshirib boradi, o‘quv jarayonini tashkil etishda akmeologik yondashuvga asoslanadi.	Hayotida duch keladigan muammoni ijobiy hal qilishni, mustaqil o‘qib, o‘rganishni, ishlashni, izlanishni, yangilik yaratishni, mantiqiy fikrlashga o‘rganadi hamda raqobatbardosh kadr sifatida shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda

Zamonaviy ta'limning ahamiyati o'quvchilarda faol ijtimoiylashuv ko'nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar o'quvchilar tafakkurini motivatsion va reflektiv ko'nikmalarga o'rgatish vositalari, shakllari, usul va yo'llarini belgilash asosida qaror topadi. Buning uchun o'qituvchidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy munosabatda hamda akmeologik yondashuvda bo'lish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan innovatsion metod hamda ijodiy-ta'limiy o'yinlar mazmunini tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan bog'liq holda izohlash asosida ishlab chiqilgan, maqsaddan natijaga yo'naltirilgan izchillik va uzviylik xarakteriga ega funksional modelni ta'lim amaliyotiga tatbiq qilish o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalarining shakllanishiga samarali ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda boshlang'ich sinflar o'qituvchilari alohida o'rin tutadilar. Ularning mashg'ulot va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirish hamda yuqori saviyada o'tkazishga nisbatan ijodiy yondashishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarga ega bo'lish imkoniyatini oshiradi.

Xulosalariga tayangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

- boshlang'ich sinf Tarbiya fanini o'tishda amaliy tajribalarga alohida e'tibor qaratish, ya'ni imkoniyat darajasida mazkur darslarni sinf xonasida emas, mavzuga mos obyektlarda tashkil etish;

- milliy o'quv dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanlari dasturiga qo'shimcha ravishda "Mashq daftari" ishlab chiqish;

- boshlang'ich sinflarda Tarbiya fanidan dars beradigan o'qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etib, unda xorijiy tajribalarga asoslangan holda treninglar olib borish uchun dasturlar tayyorlash;

- tarbiya darslari mazmuni asosida sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

REFERENCES

1. Mahamadjon Abdurahmonov, Nasimxon Rahmonov Madaniyatshunoslik darslik. 2014-yil
2. Gorbushina O.P. Psixologicheskiy trening. Sekreti provedeniya. SPb.: Piter, 2007. - 176 s: il. - (Seriya «Prakticheskaya psixologiya»).
3. Zaxarov V.P., Xryasheva N.Y. Sotsialno-psixologicheskiy trening.L., 1990.
4. Praktikum po sotsialno-psixologicheskemu treningu. Pod.red. B.D.Parigina. Sankt-Peterburg, 1994.
5. N.Dilova Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida /Pedagogik akmeologiya/2023y 1-son, 45-bet

6. Hakimova N.S. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati // Psixologiya. -Buxoro, 2022. №5. -146-149. (13.00.00; №14).
7. Hakimova N.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me‘yorlarning o‘rni // “Pedagogik mahorat” Buxoro, 2022-№5. -98-101. (13.00.00; №23).

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
“STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE
TEACHERS BASED ON THE APPROACH OF CULTURAL STUDIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS”
October 19-20, 2023

37	Radjapova Zuxra Tirkashevna , PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI	139
38	Sanjarbek Yangiboyev , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVY AXLOQIY TARBIYALASHDA MUHAMMAD SODIQ QOSHG'ARIYNING "ODOB AS-SOLIHIN" ASARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	143
39	Nafisa Sobirova , TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA "ODOB AS-SOLIHIN" ASARINING AHAMIYATI	146
40	Shahodat Raximova , OPPORTUNITIES TO PREPARE FUTURE TEACHERS TO DIAGNOSE AND ASSESS STUDENT DEVELOPMENT LEVELS	149
41	Gulshod Xasanova , TALABALAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK, DIDAKTIK JIHATLARI	155
42	Dilfuza Shomalikova , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ODOB-AXLOQ KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHDA MADANIY MEROSDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	159
43	Dildora Madjidova , INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ALOHIDA EHTIYOJLI O'QUVCHILARNI RIVOJLANISH SOHASIDAGI PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	164
44	Roxat Safarova , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA "4 K" KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	168
45	Bayrambay Utemuratov , БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР БИЛАН МУЛОҚОТГА КИРИШИШ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	175
46	Lolaxon Turayeva , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI "KRISTALL JISMLAR TUZILISHI" MAVZUSINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA O'QITISHDA MAPLE DASTURIY VOSITASIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH	178
47	Dilfuza Kamoljonova , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID TAJRIBALAR BILAN QUROLLANTIRISH USULLARI	188
48	B.S. Raxmonov, M.B. Setmamatov, X.A. Madirimov , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ME'MORIY OBIDALARNI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	191
49	Rayxan Boltaboyeva , BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KASBIY IXTISOSLIKKA MOS LABORATORIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI	195
50	N.A. Xamidova , OLIY TA'LIM JARAYONIDA BOLALAR NEVROLOGIYASI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	200
51	Gulmira Tajimbetova , MECHANISMS OF MODERNIZATION OF THE SYSTEM DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS BASED ON THE APPROACH OF CULTURAL STUDIES IN ORAL SPEECH	204
52	G'aybullo Sanoyev , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASH	206
53	Manzura Kosimova , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI	209
54	Наргиза Дилова , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA AJDODLAR MEROSIDAN FOYDALANISH MAZMUNI	213
55	Nargiza Hakimova , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOY VA HUQUQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH	217
56	А.Т. Нурманов , О ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ ПОДХОДЕ К ОБУЧЕНИЮ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ ПРИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ	221
57	G.I. Muxamedov, J.E. Usarov , ZAMONAVIY O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI	225
58	Nargizaxon Atakulova , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNI DINIY BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASH IMKONIYATLARI	228
59	Perdegul Djurayeva , PROFESSIONAL CULTURAL COMPETENCE AND TEACHER'S PROFESSIONALISM: MEANING, CHARACTERISTICS AND INTERRELATIONS	231
60	Aziza Gulyamova , TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA PROFESSOR O'QITUVCHILARNING NOTIQLIK MADANIYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	235
61	N.K. Davronov , OLIY TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TANLASH PRINSIPLARI	239
62	Yunusbek Maxmudov , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MADANIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA MULOQOT FUNKSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI	243
63	Dilnoza Oxunova , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY BILIMLARINI KOGNITIV IDROK ETISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI	247
64	Yarmuxammad Madaliyev , ABAY IJODIY ME'ROSI VOSITASIDA TALABALARDA HAMDO'STLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH	251
65	Zumrad Masharipova, Nasiba Sabirova , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	255
66	Nodira Tadjiyeva , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	259
67	Dilshod Atamuratov , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA O'QUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOTGA TAYYORLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	262
68	Sardorbek Sharifzoda , OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA GENDER YONDASHUVINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOY ZARURATI	265
69	Dilnoza Axmedova , REDIT MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY METODLARNING O'RNI	271
70	Salima Abdurizayeva , O'QITUVCHINING MA'NAVYI QIYOFASIDA IJODIY MUHITNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMI	274
71	Azim Mamirov , BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH	279
72	V. Atoxo'jayev , OLIY TA'LIM JARAYONIDA NAQSHBANDIYLIK TA'LIMOTIDAGI PEDAGOGIK FIKRLARDAN FOYDALANISH	285
73	И.М. Сиддиков, Б.И. Меликузиев , КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА	288
74	Iroda Samatova , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOY-SIYOSIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZARO ALOQADORLIGI	292